




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI



Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

2020-yil yanvar-fevral holatiga



Davlat statistika qo'mitasiga 2020-yilning yanvar-fevral holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan 278 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 15 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 52 ta qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, 176 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 35 ta qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.



Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)



2020-yil yanvar-fevral holatiga

- Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:

135 tasi (jamiga nisbatan 48,5 %) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan

36 tasi (13 %) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan

51 tasi (18,3 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan



26 tasi (9,3 %) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan

14 tasi (5,3 %) O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan


6 tasi (2,1 %) Qo'mita vakolatlari, faoliyati bo'yicha ma'lumot olish yuzasidan

10 tasi (3,5 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlarni tashkil etgan



Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlil:

2020-yil yanvar-fevral holatiga




Davlat statistika qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan 174 ta (o'tgan yilning shu davrida 196 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 26 ta, Farg'ona viloyatidan 5 ta, Namangan viloyatidan 6 ta, Jizzax viloyatidan 8 ta, Samarqand viloyatidan 2 ta, Andijon viloyatidan 5 ta, Qashqadaryo viloyatidan 6 ta, Surxondaryo viloyatidan 6 ta, Xorazm viloyatidan 3 ta, Sirdaryo viloyatidan 6 ta, Navoiy viloyatidan 7 ta, Buxoro viloyatidan 7 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 12 ta va boshqa Respublikalardan 5 ta murojaatlar kelib tushgan.



Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:

2020-yil yanvar-fevral holatiga

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 40,6 % (113 ta) jismoniy shaxslar va 59,4 % (165 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.




Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:



2020-yil yanvar-fevral oylari holatiga

Jismoniy va yuridik shaxslar

Jami: 278



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 278 ta murojaatlarning 245 tasiga chora ko'rildi, 7 tasi tushuntirildi, 26 tasi ko'rib chiqilmoqda.

Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch kelsangiz yoki tahliliy ma'lumotlarni olishni hohlasangiz quyidagi raqamlarga murojaat eting:



“Ishonch telefon”lari: (71) 230-81-80, 230-81-82



Davlat statistika qo'mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 230-81-81



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi pm.gov.uz orqali murojaat etishingiz mumkin.

Davlat statistika qo'mitasi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomini nazorati boshqarmasi:

F. Berdibayev tel: (0371) 230-81-24



Pochta manzili - info@stat.uz

Bizning manzil: 100170, Toshkent sh,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63

